

VI. XIZMATLAR

Xizmatlar sohasini rivojlantirish ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirishning eng muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Bugungi kunda mamlakatda olib borilayotgan bozor islohotlari jamiyatni rivojlantirishning eng muhim ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarini hal qilishda xizmat ko‘rsatish sohasining rolini oshirishga katta ta‘sir ko‘rsatadi. Xizmatlarning xilma-xilligi aholining katta qismini hayot sifatini va farovonligini yaxshilash imkonini beradi.


Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha bozor xizmatlari ishlab chiqarish (2025- yil yanvar-mart)

	mlrd so‘m	O‘shish sur‘ati, % da	Jamiga nisbatan % da
Jami xizmatlar	10 614 ,3	109,2	100,0
<i>shu jumladan: xizmat turlari bo‘yicha</i>			
Aloqa va axborotlashtirish xizmati	363,8	121,5	3,4
Moliyaviy xizmatlar	896,1	117,2	8,4
Transport xizmati	1 405,6	113,2	13,2
<i>shu jumladan:</i> avtotransport xizmatlari	1 223,7	118,4	11,5
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	4 054,0	104,6	38,2
Savdo xizmatlari	1 939,9	112,9	18,3
Ko‘chmas mulk bilan bog‘liq bo‘lgan xizmatlar	154,5	108,5	1,5
Ta‘lim sohasidagi xizmatlar	360,7	91,0	3,4
Sog‘liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	198,7	111,5	1,9
Ijara va prokat xizmatlari	107,5	101,4	1,0
Kompyuterlarni va maishiy tovarlarni ta‘mirlash xizmatlari	260,3	112,7	2,5
Boshqa shaxsiy xizmatlar	477,7	109,4	4,5
Me‘morchilik, muxandislik izlanishlari, texnik sinovlarva tahlil sohasidagi xizmatlar	78,3	123,2	0,7
Boshqa turdagi xizmatlar	317,2	109,5	3,0

Xizmatlar tarkibida eng katta ulushni Yashash va ovqatlanish xizmatlari (38,2 %), savdo xizmatlari (18,3 %) transport xizmatlar (13,2 %), tashkil etgan.

Xizmatlar umumiy hajmida past ulushlarni me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (0,7 %), sog'liqni saqlash xizmatlari (1,9 %) tashkil etgan.

2025- yil yanvar-mart oylarida bajarilgan xizmatlar tarkibi, (% da)



2025- yil yanvar-mart oylarida bozor xizmatlari ishlab chiqarishning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha hajmi 10 614,3 mlrd so'mni tashkil qildi.

Savdo xizmatlari 112,9 % ga oshgan va jami xizmat tarkibidagi ulushi 18,3 % ni tashkil etdi.

Transport xizmati 113,2 % ga oshgan va jami xizmat tarkibidagi ulushi 13,2 % ni tashkil etdi.

Moliyaviy xizmatlar 117,2 % ga oshgan va jami xizmat tarkibida 8,4 % ni tashkil etdi.


Shaxsiy xizmatlar 109,4 % ga oshgan va jami xizmat tarkibidagi ulushi 4,5 % ni tashkil etdi.

Aloqa axborotlashtirish xizmati 121,5 % ga oshgan va jami xizmat tarkibidagi ulushi 3,4 % ni tashkil etdi.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar 111,5 % ga oshgan bo'lib, va jami xizmat tarkibidagi ulushi 1,9 % ni tashkil etdi.


2025- yil yanvar-mart oylarida ko'rsatilgan xizmatlar tarkibi

(jami xajmga nisbatan, % da)



Shahar va tumanlar kesimida xizmatlar ishlab chiqarilishi


(2025- yil yanvar-mart, mlrd so'm)



Hududlar kesimida xizmatlar ishlab chiqarish hajmi
(2025- yil yanvar-mart)

	Jami			Aholi jon boshiga	
	mlrd so'm	2024- yil yanvar-mart oylariga nisbatan, % da	Ulushi % da	ming so'm	2024- yil yanvar-mart oylariga nisbatan, % da
Viloyat jami	10 614,3	109,2	100,0	3 382,2	106,9
Namangan sh.	2 463,2	109,9	23,7	3 444,6	107,4
Mingbuloq	211,5	113,3	2,0	1 510,5	111,0
Kosonsoy	284,1	112,8	2,7	1 216,2	110,3
Namangan t.	305,7	112,9	2,9	1 546,9	110,3
Norin	249,2	114,2	2,3	1 388,3	112,0
Pop	373,9	112,5	3,5	1 556,6	110,5
To'raqo'rg'on	357,7	111,8	3,4	1 423,5	109,3
Uychi	337,4	111,0	3,2	1 417,0	108,6
Uchqo'rg'on	279,1	113,4	2,6	1 476,7	111,4
Chortoq	313,5	112,7	2,9	1 427,5	110,5
Chust	397,6	113,9	3,7	1 361,7	111,7
Yangiqo'rg'on	278,3	112,2	2,6	1 148,5	110,0


Shahar va tumanlar kesimida ko'rsatilgan xizmatlar hajmi aholi jon boshiga
(2025- yil yanvar-mart, ming so'm)



Hududlar kesimida xizmatlarning eng yuqori o'sish sur'ati Norin tumanida 2 49,2 mlrd so'm (114,2 %) va Chust tumanida 397,6 mlrd so'm (113,9 %)ga to'g'ri keldi.

Aholi jon boshiga eng katta xizmatlar hajmi Namangan shahrida (3 444,6 ming so'm), Mingbuloq tumanida (1 510,5 ming so'm) va Namangan tumanida (1 546,9 ming so'm) qayd etildi.

2025- yil yanvar-mart oylarida alohida xizmat turlari hajmining taqqoslanishi, mlrd so'm



Yuqori o'sish sur'atlari Aloqa va axborotlashtirish xizmatlar (121,5 %), Moliyaviy xizmatlar (117,2 %) va Transport xizmatlar (113,2 %) kabi xizmat turlarida qayd etildi.


Transport xizmatlari tarkibida yetakchi o'rinni avtomobil transportida ko'rsatilgan xizmatlar (87,1 %) egallaydi. Yordamchi transport faoliyati transport xizmatlari umumiy hajmining 12,3 % ni tashkil qiladi.

Pochta va kurerlik faoliyati bo'yicha transport xizmatlarining 0,6 % ni tashkil etadi.

Savdo xizmatlari tarkibida avtomobillar va motosikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar katta salmoqqa ega. 2025- yil yanvar-mart oylarida uning ulushi 62,3 % ni tashkil etadi.


Ulgurji savdo bo'yicha xizmatlarning (avtomobillar va motosikllar savdosidan tashqari) ulushi 19,5 % ga yetdi.

2025- yil yanvar-mart oylarida transport turlari bo'yicha transport xizmatlari tarkibi, % da



Aholining daromadlari darajasining oshishi bilan iste'mol talabi va savdo aylanmasi o'smoqda.

Avtomobillar va motosikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda avtomobillar va motosikllar ulgurji va chakana savdosi bo'yicha xizmatlar umumiy savdo xizmatlari hajmida 18,2 % ni egallaydi.



- ☑ Avtomobil va motosikllar ulgurji va chakana savdosi, avtomobil va motosikllarni ta'mirlash xizmatlarini qo'shgan xolda
- ☑ Ulgurji savdo xizmatlari (Avtomobillar va motosikllar savdosidan tashqari)
- ☑ Avtomobil va motosikllardan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar